

Ajdodlar merosi

Buyruq-istak va his-hayajon gaplar





Fan- O‘zbek tili
O‘qituvchi- Kamaliddinova
Nigora Sirajiddinovna

REJA:

- 1 • Shohjahon asri
- 2 • Buyruq gaplar
- 3 • His-hayajon yoki undov gaplar
- 4 • Topshiriqlar ustida ishlash



- Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?
- Allomalarimiz qaysi sohalarda faoliyat yuritishgan?
- Ular yaratgan ixtiolar va asarlar qanday ahamiyatga ega?



TIIAME



Shohjahon asri

Shohjahon zamonasi yuqori ko‘tarinkilik davri bo‘lib, Hindiston tarixida bunday boyliklarni ko‘rmagan edi. Ushbu boyliklar Shohjahonning ota-bobolari va ajdodlari tomonidan me’ros bo‘lib, uning ulkanligi urushlarda qozonilgan g‘alabalar bilan emas, balki yaratilgan buyuk me’moriy obidalari bilan belgilanadi.

Ular bugungi kungacha butun insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Bu o‘lmas asarlar Dehlidagi «La’l qal’a», uning ro‘parasidagi «Masjidi jome», Agradagi «Tojmahal» maqbaralaridir. «La’l qal’a» Jamna daryosi bo‘yida qurilgan bo‘lib, uning ko‘rinishi Agradagiga o‘xshaydi.



TILAME

Lug‘at

zamona - эпоха, время

ko‘tarinkilik - возвышенность

ajdodlar – предки

ulkan - огромный, громадный

hayratga solmoq - удивить

ro‘parasida - напротив

o‘lmas - бессмертный

ko‘rinish - вид



TIIAME

Bilib oling!

Buyruq-xitobni bildirib, buyurish, istak, xohish ohangi bilan aytiladigan gaplar *buyruq gaplar* deb ataladi. Bunday gaplar oxiriga nuqta (.) yoki undov belgisi (!) qo‘yiladi.

Masalan: Ruxsat, ketishingiz mumkin. Tez yetib keling.

Xohish, istak ma’nosini bildiradigan gaplar *istik gaplar* deb ataladi. Bunday gaplarning kesimi -sa shart mayli va shaxs-son qo‘shimchalarini olib keladi.


Masalan: Qani endi, institutga o‘qishga kirsam va shifokor bo‘lsam.

His-hayajonni ifodalab, kuchli ohang bilan aytiladigan gaplar *his-hayajon* yoki *undov gaplar* deyiladi. Ular ko‘pincha undov so‘zlar bilan qo‘llanadi va oxiriga undov belgisi (!) qo‘yiladi.


Masalan: Eh, bu go‘zal manzaraga bir qarang!

1-mashq. Matnni gaplarga ajrating va zarur tinish belgilarini qo‘ying. Har bir gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turini ayting.

Qadimiy binolarimizning mahobati va go‘zalligini ko‘ring jahonda tengi yo‘q bu kabi obidalar bizning ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilganibiz uchun ulkan sharaf emassi ajdodlari bunday ulkan va beba ho meros qoldirgan millatlar xalqlar unchalik ko‘p emas bizga juda ko‘plar havas bilan qarashini bilasizmi ha biz shunday boy merosning qonuniy vorislarimiz bu bilan faxrlanamiz albatta biroq faxrlnishning o‘zi yetarlimikan shunday buyuk ajdodlarning munosib davomchilari bo‘lish uchun nimalar qilish kerak sizning keljak rejalaringiz qanday qaysi tengdoshlaringizga o‘xshashni xohlaysiz



O'zbekistondagi qadimiy yodgorliklarning nomlarini yozing





TIIAME

TEST

1. Ifoda maqsadiga ko‘ra gaplar qanday turlarga bo‘linadi?

- A) darak, so‘roq, buyruq gaplar B) so‘roq, buyruq, istak gaplar
C) darak, so‘roq, buyruq, istak gaplar D) darak, so‘roq, buyruq-istak gaplar

2. Maslahat, buyruq mazmunini ifodalagan gapni toping.

- A) Sochingni chambarak qil! B) Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, Oqsoqol! C) - Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlagin, Hoshim degan bola so'rasa yo'q demagin... D) - Olimjon, chiq bu yoqqa!

3. Ham so‘roq, ham hayajon qaysi gapda ifodalangan?

- A) – Ota-onang bormi? B) – Yangi qo‘shnimizga nima deysan? C) – Sen qayerdan bizga qo‘shilding? D) – Voy, Ahmadjon, endi nima qilaman?

4. His-hayajon gap qaysi qatorda berilmagan?

- A) Eh, qanday go‘zal bu yoshlik! B) Yoshlik, qanday beg‘ubor faslsan! C) Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. D) Naqadar baxtlidir ona bechora!



TIIAME

5. So‘roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda noto‘g‘ri berilgan?

- A) so‘roq olmoshlari bilan B) so‘roq yuklamalari vositasida C) so‘roq ohangi yordamida
D) so‘roq olmoshlari ishtirokidagi gumon olmoshlari yordamida

6. Yashirin tasdiq mazmunini bildiradigan ritorik so‘roq gapni belgilang.

- A) Nahotki yerimiz chappa aylanib, Nahotki daryolar oqar teskari? B) Farzandni kim sevmaydi? C) Siz Salimovning o‘g‘li emasmisiz? D) Axir shuncha odamning qoni evaziga quriladigan yurt qanday ravnaq topishi, tinchlik-omonlikda yashashi mumkin?

7. His-hayajon gaplarning xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

- A) takibida ko‘pincha qancha, naqadar, shunchalar, qanday so‘zlari qatnashadi B) undov so‘zlar ishtirok etadi C) kesim gapning boshida keladi D) barchasi to‘g‘ri.

8. Istak gap berilgan qatorni toping.

- A) Xo‘s, sen o‘tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak? B) Akalari ham, Oyqizning o‘zi ham shu uyda o‘sigan. C) Qani, hamma xotin ham sizday bo‘lsa... D) Mana senga qog‘oz bilan qalam, shunga sen bitta e’lon yozasan.

2-mashq. Birinchi ustundagi maqollarning davomini ikkinchi ustundan topib yozing. Ularda nimalar targ‘ib qilingan?

Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim,	kulfat seni chetlab o‘tadi.
Boshqalarga yordam bersang,	olam seniki.
Yaxshi so‘z eshitmoqchi bo‘lsang,	hech kimga dushmanlik qilma.
Qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur	yomonning yomonligi tegar tor yerda.
Olim bo‘lsang,	yomon gap aytma.
Agar do‘stim ko‘p bo‘lsin desang,	orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda,	oz-ozdan o‘rganib, dono bo‘lur.



Tojmahal




Boburiylar sultanatining mashhur vakili Shohjahon eng omadli shohlardan biri bo‘lgan. U suyukli xotini Arjumand bonu - Mumtoz Mahalni dafn qilish uchun alohida maqbara qurdirgan. Tojmahal beqiyos darajada go‘zal me’moriy yodgorlik. U Shohjahon o‘zidan key in qoldirgan tarixiy yodgorliklarning, umuman, Hindistondagi obidalarning eng hashamatlisidir.

Shohjahon ushbu qasrni dunyoning mo‘jizasi bo‘lib qolishini istagan va niyatiga yetgan.

Ushbu bino betakrorligi bilan kishini hayratga soladi. Tojmahal Shohjahonning nomini ham tarixga muhrlab qoldirdi.





ТПАМЕ

Lug‘at	
saltanat - царство	maqbara - мавзолей, усыпальница
vakil - представитель	beqiyos darajada - несравненный
omadli - удачливый	mo‘jiza - чудо
dafn qilish - хоронить	niyatiga yetmoq - добраться цели

Boburning shaxsiy fazilatlari

Bobur ismi «sher» ma’nosini anglatib, uning o‘zi ham ismi jismiga monand kishi bo‘lgan, kelishgan qaddi-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchillikda, chaqqonlikda oldiga tushadigani topilmagan, uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan. U ko‘pincha ikki qo‘liga og‘ir yukni ko‘tarib, Agra qal’asi devorlari ustida yugurib mashq qilgan. U yana ajoyib suzuvchi va g‘avvos ham bo‘lgan, Ganga daryosidan tashqari jamiki yo‘lida uchragan hind daryolarini suzib o‘tgan.





Uning shirali til, ohangdor vazn bilan bitilgan tarjimayi holi - «Boburnoma»ni o‘qir ekansiz, muallif badiiy didining naqadar go‘zalligi, aql-u zakovati teranligi, bilimi naqadar cheksizligining guvohi bo‘lasiz.

Bobur tabiatni va bazmlarni jonidan yaxshi ko‘rgan. Ayniqsa, tog‘larni, daryolarni, bog‘larni, yaylovlarni ko‘rganda, o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbat va sog‘inch ilhomni jo‘sh urgan.

Lug‘at	
jismi - тело	epchillik - ловкость
monand - похожий	muallif - автор
dovyurak - храбрый	bazm - пиршество
g‘avvos - водолаз	yaylov - луг





Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Siz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Bobur va boburiylar sulolasi Hindiston va Afg'onistonda barpo etgan bog'lar, madrasa va saroylar haqida bilganlaringizni so'zlab bering.
3. Bir xil so'roqqa javob bo'ladigan so'zlarni topib, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

Uyga vazifa. 5 tadan buyruq va undov gaplar tuzing.



E‘tiboringiz uchun
rahmat!